Djalalov.B.B.
Farg‘ona davlat universiteti maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Muxammadjonova. M.Sh.
Farg‘ona davlat universiteti talabasi

ETNOPEDAGOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy ishda etnopedagogik resurslardan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, ularning ta’lim-tarbiya tizimidagi o‘rni chuqur yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – milliy qadriyatlar, urf-odatlar va xalq pedagogikasiga xos boy merosni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish orqali yosh avlodning ma’naviy va madaniy kamolotini ta’minlashdir. Metodologik asos sifatida tarixiy-tahliliy, tizimli yondashuv hamda qiyosiy pedagogik tahlil usullari qo‘llanilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, etnopedagogik resurslardan maqsadli foydalanish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni, ijtimoiy faollikni va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda etnopedagogik resurslar ta’lim jarayoniga integratsiyalashning amaliy modeli ishlab chiqilgan. Ish natijalari ta’lim tizimini milliy qadriyatlarga asoslangan holda takomillashtirish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar*: etnopedagogika, milliy qadriyatlar, xalq an’analari, pedagogik resurslar, ta’lim samaradorligi, tarbiyaviy mexanizmlar, madaniy meros, innovatsion yondashuv.*

Аннотация. *В данной научной работе проведён всесторонний анализ теоретических и практических аспектов эффективного использования этнопедагогических ресурсов в системе образования. Основная цель исследования заключается в интеграции национальных ценностей, традиций и богатого народного педагогического опыта с современными образовательными технологиями для обеспечения духовного и культурного развития молодёжи. Методологическую основу составили историко-аналитический, системный и сравнительно-педагогический подходы. Полученные результаты показали, что целенаправленное использование этнопедагогических ресурсов способствует формированию национального самосознания, социальной активности и творческого мышления обучающихся. Научная новизна исследования заключается в разработке практической модели интеграции этнопедагогических элементов в образовательный процесс. Результаты исследования представляют собой теоретическую и практическую основу для совершенствования национальной системы образования.*

Ключевые слова*: этнопедагогика, национальные ценности, народные традиции, педагогические ресурсы, эффективность образования, воспитательные механизмы,*

культурное наследие, инновационный подход.

Annotation. *This scientific study provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical dimensions of effectively utilizing ethnopedagogical resources within the educational system. The main objective is to integrate national values, customs, and the rich heritage of folk pedagogy with modern educational technologies to ensure the moral and cultural development of the younger generation. The methodological framework is based on historical-analytical, systemic, and comparative pedagogical approaches. The findings indicate that purposeful use of ethnopedagogical resources enhances students’ national identity, social activity, and creative thinking. The scientific novelty of the research lies in the development of a practical model for integrating ethnopedagogical components into the educational process. The results serve as a valuable theoretical and practical foundation for improving the national education system through culturally grounded pedagogy.*

Keywords: *ethnopedagogy, national values, folk traditions, pedagogical resources, educational effectiveness, educational mechanisms, cultural heritage, innovative approach.*

Zamonaviy globallashuv jarayonida milliy madaniyat, xalq an’analari va tarixiy qadriyatlarning o‘zligini saqlash masalasi ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, pedagogik jarayonlarda etnopedagogik resurslardan samarali foydalanish masalasi o‘ziga xos metodologik ahamiyat kasb etmoqda. Etnopedagogika — bu xalqning ko‘p asrlik tarbiyaviy tajribasi, urf-odatlari, marosimlari, og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlari asosida shakllangan tarbiya tizimi bo‘lib, u shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega[6].

Tadqiqotning obyekti — etnopedagogik resurslardan ta’lim va tarbiya jarayonida samarali foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslaridir. Tadqiqotning markaziy tushunchalari sifatida “etnopedagogika”, “resurs”, “milliy qadriyat”, “tarbiyaviy mexanizm”, “madaniy meros”, “pedagogik samaradorlik” atamalari olinadi. Ushbu tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy madaniyatning uzviy tarkibiy qismini tashkil etadi. Etnopedagogik resurslar o‘zida xalqning tarixiy tajribasini, milliy urf-odatlarini, madaniy merosini va o‘ziga xos dunyoqarashini mujassamlashtiradi. Shunday resurslarni ta’lim-tarbiya tizimiga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, insoniy fazilatlarni shakllantirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin[15]. Muammoning markazga qo‘yilishi shundan iboratki, mavjud pedagogik tizimlarda etnopedagogik yondashuvlar ko‘pincha formal tarzda qo‘llanilib, ularning chuqur metodik mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Amaliyotda etnopedagogik resurslar ko‘proq milliy bayramlar, marosimlar yoki xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida yuzaki tarzda tadbiq etilmoqda, biroq ular orqali shaxsning ma’naviy kamolotini, fuqarolik pozitsiyasini va milliy identifikatsiyasini shakllantirish mexanizmlari tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilmagan[10]. Shu sababli, etnopedagogik resurslardan samarali foydalanishning istiqbollari va mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etish zaruriyatga aylandi. So‘nggi yillarda o‘zbek olimlari

tomonidan xalq pedagogikasining ayrim jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da[18], ularning aksariyati etnopedagogik merosning tarbiyaviy salohiyatini faqat nazariy jihatdan yoritish bilan chegaralangan. Amaliy mexanizmlar, pedagogik modellar va baholash mezonlari esa deyarli ishlab chiqilmagan. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot avvalgi ilmiy ishlarni tahlil qilib, ulardagi bo‘shliqlarni aniqlash hamda yangi ilmiy yondashuvlar asosida etnopedagogik resurslardan foydalanish mexanizmini ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — etnopedagogik resurslardan samarali foydalanish istiqbollari va mexanizmlarini aniqlash, ularni zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiyalashning ilmiy-nazariy hamda metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Etnopedagogik resurslarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish va ularning tasnifini ishlab chiqish;
2. Etnopedagogik qadriyatlarni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llashning metodologik yo‘nalishlarini aniqlash;
3. Ularning samaradorligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish;
4. Etnopedagogik resurslardan foydalanishning eksperimental mexanizmini yaratish va amaliyotda sinovdan o‘tkazish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda birinchi marotaba etnopedagogik resurslardan foydalanish uchun strukturaviy-mexanik model ishlab chiqiladi, bunda xalq an’analari, milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unlashtirilgan holda ta’lim jarayoniga tatbiq etiladi. Shu orqali pedagogik samaradorlikni oshirish, o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish va milliy identitetni mustahkamlashning yangi yo‘llari taklif qilinadi. Shuningdek, ilmiy natijalar asosida etnopedagogik resurslarni tizimli tahlil etish va ularni integratsiyalashning metodik ko‘rsatmalari ishlab chiqiladi[9]. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan mexanizm umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarga tatbiq qilinishi mumkin. Natijalar ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni chuqur anglash, ijodiy tafakkur va ma’naviy yetuklikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, mazkur tadqiqot milliy o‘zlikni saqlash, xalq pedagogikasi merosini tiklash va uni zamonaviy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda etnopedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlar milliy ta’lim tizimini takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Etnopedagogika, xalqning ma’naviy merosiga asoslangan holda, shaxs tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishni maqsad qilib qo‘yadi. Ushbu fan yo‘nalishining shakllanishi va rivojlanishida Sharq mutafakkirlari, xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plovchi va o‘rganuvchi olimlar, zamonaviy pedagogik tafakkur egalari muhim o‘rin tutgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi allomalarning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari etnopedagogikaning nazariy asoslarini belgilab bergan.[6] Ular insonni ma’naviy-axloqiy barkamollikka yetaklashda xalq donoligini va an’anaviy

qadriyatlarni ta’lim jarayonining markaziga qo‘yish zarurligini ta’kidlaganlar.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa etnopedagogik resurslar ko‘proq ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ma’naviy dunyoqarashini boyitishga qaratilgan omil sifatida o‘rganilmoqda. Masalan, o‘zining “Etnopedagogikaning nazariy asoslari” nomli asarida xalq an’analari va og‘zaki ijod namunalarini pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, “xalq tajribasi orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning milliy o‘zligini shakllantiradi, bu esa ularning ijtimoiy faolligini va ma’naviy qarashlarini mustahkamlaydi”. Tursunov (2020) esa “Xalq og‘zaki ijodi va etnopedagogika asoslari” asarida pedagogik resurslarni o‘quv jarayonida integratsiyalash orqali o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish mumkinligini asoslab beradi. Uning fikricha, “etnopedagogik resurslar faqat ma’naviy yodgorlik emas, balki zamonaviy ta’limni boyituvchi innovatsion manba hisoblanadi”[15]. Shuningdek, Raxmonova (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda etnopedagogik qadriyatlarning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni, ularning psixologik va sotsiokulturna asoslari tahlil etilgan. U o‘z maqolasida, “milliy qadriyatlar asosidagi ta’lim modeli yosh avlodda ijtimoiy mas’uliyatni, milliy g‘ururni va vatanparvarlikni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi”, deb qayd etadi[10].

Mazkur yo‘nalishda Saidov (2023) va Qodirova (2024) tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda etnopedagogik qadriyatlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish yo‘llari tahlil qilingan. Saidov o‘z tadqiqotida etnopedagogik resurslar asosida “innovatsion pedagogik modellar”ni ishlab chiqishni taklif etadi. Qodirova esa bu jarayonda ta’lim monitoringi va samaradorlikni baholash mexanizmlarini aniqlashga e’tibor qaratadi. Ularning izlanishlari amaliy jihatdan dolzarb bo‘lsa-da, etnopedagogik resurslardan foydalanish mexanizmlarini tizimli yondashuv asosida ishlab chiqish masalasi hali to‘liq yechimini topgani yo‘q. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotlar orasida ko‘proq nazariy qarashlar ustuvor, amaliy mexanizmlar esa yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ushbu tadqiqot etnopedagogik resurslardan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash va ularning mexanizmlarini ilmiy asosda shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bu esa xalq merosini ta’limga tatbiq etishda innovatsion-pedagogik yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi etnopedagogik resurslarni tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlarini o‘rganishdan iborat. Metodologik asos sifatida ilmiylik, tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlil prinsiplari tanlandi (Saidov, 2023). Ushbu prinsiplarga tayanilgan holda tadqiqot quyidagi yo‘nalishlarda olib borildi: Ma’lumotlar yig‘ish jarayonida bibliografik manbalar, elektron ilmiy bazalar (Google Scholar, CyberLeninka, ResearchGate), shuningdek, xalq og‘zaki ijod namunalari va o‘zbek xalqining tarbiyaviy tajribalari asos qilib olindi. Shuningdek, etnopedagogik mavzuga oid ilgari o‘tkazilgan ilmiy anjuman materiallari va dissertatsiyalar ham tahlil etildi. Ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash uchun uch bosqichli tekshiruv tizimi (manba aniqligi, ma’lumot mosligi, takroriy verifikatsiya) qo‘llandi (Qodirova, 2024). Ma’lumotlarni tahlil qilish metodikasi. Olingan ma’lumotlar kontent-tahlil, strukturaviy-funksional tahlil va taqqoslama metodlari asosida qayta

ishlanib, umumlashtirildi. Kontent-tahlil orqali manbalarda etnopedagogik resurslarning asosiy kategoriyalari ajratib olindi, strukturaviy tahlil yordamida esa ularning pedagogik jarayonlardagi o‘rni aniqlashtirildi. Shuningdek, empirik metodlar – so‘rovnoma, intervyu, kuzatuv va pedagogik eksperiment – orqali o‘qituvchilar va talabalar fikrlari o‘rganildi. Ushbu yondashuv natijasida amaliyotdagi real holat, mavjud kamchiliklar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlanib, keyingi ilmiy natijalar uchun poydevor yaratildi (Tursunov, 2020).

Tadqiqotda aniqlangan natijalar maxsus ishlab chiqilgan indikatorlar asosida baholandi. Bu indikatorlar etnopedagogik resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlovchi mezonlar sifatida ishlab chiqildi: ta’lim mazmunining boyitilishi, pedagogik faoliyatning milliylashtirilganligi, o‘quvchi shaxsida etnopedagogik ong va milliy o‘zlik shakllanishi. Ushbu mezonlar asosida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi va tahliliy natijalar metodologik jihatdan umumlashtirildi. Natijada, mazkur metodologiya etnopedagogik resurslardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, ularni tizimlashtirish va amaliy mexanizm sifatida ishlab chiqish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, etnopedagogik resurslardan samarali foydalanish ta’lim tizimining ma’naviy, tarbiyaviy va innovatsion yo‘nalishlarini boyitadi. Tahlillar jarayonida xalq pedagogikasiga xos qadriyatlar, urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodi elementlaridan foydalanish o‘quvchilarda milliy g‘urur, ijtimoiy mas’uliyat va ijodkorlik sifatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, etnopedagogik yondashuv zamonaviy ta’lim mazmuniga uyg‘unlashtirilganida o‘qituvchi faoliyatining samaradorligi ortadi, o‘quv jarayoni esa insonparvarlik ruhida tashkil topadi[6]. Olingan natijalar asosida etnopedagogik resurslarni tizimli o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy yangilik sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqotda xalq an’analariga tayanilgan pedagogik metodlar ta’lim jarayonida mustahkam motivatsiya va shaxsiy faollikni oshirishi isbotlandi[14]. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, milliy merosni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish o‘quvchilarning madaniy tafakkurini chuqurlashtiradi va shaxsni ijtimoiy jihatdan barqaror shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek pedagogikasining rivojlanish bosqichida yangi konseptual yondashuvni taklif etadi. Ya’ni, etnopedagogik resurslardan foydalanishning strategik modeli ishlab chiqilib, unda ta’lim-tarbiyada xalq qadriyatlari, madaniy meros, milliy o‘zlikni anglash, zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilishi nazariy va amaliy asoslarda asoslab berildi[19]. Shuningdek, tadqiqot natijalari o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma sifatida amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu natijalar kelgusida etnopedagogik resurslar negizida yaratiladigan ta’lim dasturlarining samaradorligini oshirish, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, shuningdek, xalq pedagogikasining zamonaviy ta’lim bilan integratsiyasi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Mazkur ilmiy tadqiqot doirasida olingan natijalar o‘zbek va jahon olimlarining qarashlari bilan solishtirib tahlil qilindi. Jumladan, A. Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir” degan fikri (Avloniy, 1913) xalq pedagogikasining o‘zagida insonparvarlik va

ma’naviy yetuklik g‘oyasi yotganini ko‘rsatadi. Shu asosda etnopedagogik resurslardan foydalanishning zamonaviy talqini o‘quv-tarbiya jarayonini yangilashda muhim omil sifatida e’tirof etildi. Shuningdek, rus olimi G.N. Volkov ham etnopedagogikani “xalqning pedagogik tafakkuri tizimi” deb ta’riflagan bo‘lib, bu fikr milliy tarbiyaning ilmiy asoslarini mustahkamlashda g‘oyatda muhimdir. Olingan ilmiy natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarda etnopedagogik resurslar asosan madaniyatshunoslik yoki tarixiy nuqtai nazardan o‘rganilgan, biroq ularning pedagogik mexanizmlarini tizimli tahlil qilish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Ushbu tadqiqotda esa etnopedagogik resurslarning ta’lim mazmuniga integratsiyasi, shaxs rivojlanishiga ta’siri hamda pedagogik samaradorligi eksperimental asosda o‘rganildi.

Ma’lumotlar sifat tahlili, kuzatish, suhbat, anketalash va pedagogik tajriba metodlari orqali yig‘ilib, natijalar miqdoriy tahlil usullari yordamida baholandi. Shu bilan birga, tadqiqot gipotezasi – “etnopedagogik resurslar ta’lim samaradorligini oshiradi va milliy o‘zlikni shakllantiradi” – amaliy tajribalar orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotda olingan ilmiy natijalar V. Suxomlinskiy, G. Volkov, A. Avloniy, H. Turaqulov kabi olimlarning ilmiy qarashlarini yangicha talqin qilish imkonini berdi. Masalan, Suxomlinskiyning “ta’limning ruhiy manbai xalq hayotidan olinadi” degan fikri ushbu mavzuning nazariy asoslarini mustahkamlab, xalq pedagogikasi resurslarini zamonaviy o‘quv jarayoniga singdirishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Diskussiya yakunida shuni ta’kidlash joizki, tadqiqotning qamrov doirasi asosan o‘rta ta’lim tizimi bilan chegaralangan bo‘lib, keyingi bosqichlarda etnopedagogik resurslardan oliy ta’lim va maktabgacha ta’lim tizimlarida foydalanish yo‘nalishlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Shuningdek, xalq pedagogikasining zamonaviy ta’lim standartlariga uyg‘unlashtirilgan modellarini ishlab chiqish kelgusidagi ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo‘nalishi sifatida belgilanishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, etnopedagogik resurslardan samarali foydalanish ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsining ma’naviy-axloqiy barkamolligini shakllantirish va milliy o‘zlikni anglashini chuqurlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Etnopedagogik yondashuv orqali o‘qituvchilar nafaqat milliy qadriyatlarni o‘quvchilarga yetkazadilar, balki ularni zamonaviy ta’lim tamoyillari bilan uyg‘unlashtirib, tarbiyaviy samaradorlikni ta’minlaydilar. Muammoning yechimi sifatida, ta’lim jarayonida xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar va milliy an’analarni didaktik material sifatida qo‘llash, shuningdek, o‘qituvchilarning etnopedagogik kompetensiyasini rivojlantirish taklif etiladi. Bu orqali ta’lim tizimi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni shakllantiradi.

1. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida “Etnopedagogika asoslari” fanini amaliy yo‘nalishda chuqurlashtirib o‘qitish.
2. O‘qituvchilar uchun milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik trening va seminarlar tashkil etish.

3. Maktab darsliklari va metodik qo‘llanmalarga xalq pedagogik merosiga oid materiallarni kiritish.

4. Etnopedagogik yondashuv asosida tarbiyaviy dasturlar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish.

Shunday qilib, etnopedagogik resurslardan oqilona foydalanish ta’lim tizimining milliy asoslarini mustahkamlaydi, yosh avlodni ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli va milliy g‘ururga ega shaxs sifatida tarbiyalash imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR:

1. Abdullayeva, M. (2021). Etnopedagogika: milliy qadriyatlar va tarbiya jarayoni. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Ashurov, R. (2022). Zamonaviy ta’limda etnopedagogik yondashuvlar. Buxoro: BuxDU ilmiy to‘plami.
3. Gayazov, T. (2020). Ethnopedagogical principles in modern education. Moscow: Nauka Press.
4. Gaybullayeva, Z. (2018). Pedagogik meros va xalq an’analari asosida shaxs tarbiyasi. Andijon: AndDU nashriyoti.
5. Jalilova, M. (2022). Xalq pedagogikasida axloqiy tarbiya konsepsiyasi. “Pedagogik izlanishlar” jurnali, №5, 37–43-betlar.
6. Karimov, I. A. (2016). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.
7. Madraximova, G. (2021). Etnopedagogik merosning zamonaviy ta’limdagi o‘rni. “Ta’lim va innovatsiyalar” ilmiy jurnali, №3, 42–48-betlar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4307-son qarori. “Milliy qadriyatlarni asrash va targ‘ib etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
9. Qodirova D. (2024). Pedagogik resurslarni integratsiyalashning zamonaviy mexanizmlari. Samarqand: Ilm Ziyo.
10. Raxmonova N. (2019). “Ta’lim tizimida etnopedagogik qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati.” O‘zbekiston pedagogika jurnali, №3, 42–48-betlar.
11. Smith, J. & Brown, L. (2021). Cultural Education and Indigenous Pedagogies. London: Routledge.
12. Sodiqova, D. (2019). Xalq og‘zaki ijodi va etnopedagogik merosning ta’limdagi o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
13. To‘xtayev, B. (2020). O‘zbekiston xalq pedagogikasining nazariy asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
14. Turaqulov H. Etnopedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
15. Tursunov B. (2020). Xalq og‘zaki ijodi va etnopedagogika asoslari. Samarqand: Registon Press.
16. UNESCO. (2019). Education and Cultural Heritage: Integrating Traditions into Modern Pedagogy. Paris: UNESCO Publishing.
17. Xodjayev, M. (2023). Milliy ta’lim tizimida etnopedagogik resurslardan foydalanish

istiqbollari. “Ta’lim va innovatsiya” jurnali, №2, 44–52-betlar.
18. Yo‘ldoshev Sh. (2022). Milliy tarbiya konsepsiyasi va xalq pedagogikasining dolzarb masalalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
19. Ismoilova N. Milliy qadriyatlar va zamonaviy ta’lim integratsiyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.